



UDK: 37.02:373.5:82

*Surayyoxon IBROXIMOVA*

*Magistrant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti*

*E-mail: surayyobrohimova@gmail.com*

*Katta o'qituvchisi A.Nuraliyeva taqrizi asosida*

## 8-SINF ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada 8-sinf adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash metodikasi, interfaol metodlar va ularning o'quvchilarning badiiy tahlil, mustaqil fikrlash va ijodiy ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning turli janrdagi badiiy asarlar bilan ishlashga bo'lgan qiziqishi, badiiy asarni tahlil qilishdagi ustuvor jihatlar va modul asosidagi darslarga bo'lgan munosabati so'rovnom natijalari orqali ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Modulli ta'lim, interfaol metodlar, 8-sinf adabiyoti, badiiy tahlil, darslik misollari, pedagogik tahlil.

## METHODOLOGY OF USING MODULAR EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN 8TH GRADE LITERATURE LESSONS

Annotation

This article analyzes the methodology of using modular educational technology in 8th grade literature lessons, interactive methods and their role in the formation of students' artistic analysis, independent thinking and creative skills. Also, students' interest in working with works of art of various genres, their priorities in analyzing works of art and their attitude to modular lessons are examined through the results of a questionnaire.

**Key words:** Modular education, interactive methods, 8th grade literature, artistic analysis, textbook examples, pedagogical analysis.

## МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДУЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ В 8 КЛАССЕ

Аннотация

Анализ методики применения модульных методов обучения литературе в 8 классе, интерактивных методов и роли документации учащихся в художественном анализе, самостоятельном мышлении и творческом письме. Обзор помощи учащихся в работе с произведениями искусства различных жанров, их способности к анализу произведений искусства и их отношения к модульным урокам на основе анкетирования.

**Ключевые слова:** Модульное обучение, интерактивные методы, литература 8 класса, художественный анализ, примеры из учебника, педагогический анализ.

**Kirish.** Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning faolligi va ijodiy yondashuvi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Adabiyot darsi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning estetik va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy ma'ruza uslubidan farqli o'laroq, modulli ta'lim texnologiyasi o'quvchini faol subyekt sifatida darsga jalb qiladi[1].

Modul texnologiyasi o'quv materialini mantiqan bog'langan modularga ajratib, har bir modulning maqsadi, mazmuni va natijalarini mustaqil o'rganishga yo'naltiradi[2]. Shu bilan birga, interfaol metodlar o'quvchilarning badiiy asarlarni tahlil qilish, muammoli vazifalarni yechish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi[3].

Modulli ta'lim texnologiyasining maqsadi – o'quvchilarda bilimni mustaqil o'zlashtirish va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirishdir.[4] Interfaol metodlar esa darsni jonli va qiziqarli qiladi.

8-sinf adabiyot darslarida samarali qo'llaniladigan metodlar:

Klaster – qahramonlar va voqealarni tizimli ko'rsatadi, masalan "Ravshan dostoni"dagi qahramon xarakterlarini ajratib tahlil qilish.

Aqliy hujum – erkin fikrlash va muammolarni hal qilishni rag'batlantiradi.

Venn diagramma – qahramonlarni solishtirish va ularning o'xshash/farqli xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Rolli o'yin – qahramonlarni jonlantirish orqali darsni his-tuyg'ular bilan boyitadi.

INSERT texnologiyasi – matnni faol tahlil qilish, belgilash va savollar yaratish orqali tafakkur va tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi<sup>5</sup>.

Biz 8-sinf o'quvchilar bilan olib borgan so'rovnomamizning natijasini keltirdik. Quyida so'rovnomamizning savollari va ularning tahlilining ayrim qismlari beriladi. Ushbu natijalar 8-sinf adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasining samaradorligini va o'quvchilarning badiiy asarlarni qabul qilishdagi ustuvor jihatlarini aniqlashga yordam berdi.

So'rovnomamizning savollari:

8-sinf adabiyot darsligida ko'proq qaysi turdagi badiiy asarlar bilan tanishasiz?

Badiiy asarni tahlil qilishda eng muhim jihat nima?

Dars davomida qaysi usul sizga ko'proq qiziq?

Modul asosida o'tilgan darsda siz ko'proq nima qilasiz?

Muammoli savol sizga qanday ta'sir qiladi?

1-savol: 8-sinf darsligida ko'proq qaysi turdagi badiiy asarlar bilan tanishasiz?

Respondentlarning 13,2% she'riy asarlar, 45,3% hikoya va dostonlar, 32,1% roman va parcha hikoyalar, 9,4% tarixiy matnlar bilan ishlashini bildirgan.

Tahlil: Epik janrlar yetakchi, she'riy asarlar kam, tarixiy matnlar esa eng kam. Shu sababli, modul asosida darslarda lirika va tarixiy matnlarga alohida e'tibor berish zarur. Ushbu natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 8-sinf adabiyot darsligida asosan epik turga mansub asarlar (hikoya, doston, roman) yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, respondentlarning qariyb yarmi (45,3%) hikoya va dostonlarni ko'rsatgani ushbu janrlarning o'quvchilar tomonidan eng ko'p o'zlashtirilayotganini anglatadi. Bu holat epik asarlarning syujetga boyligi, voqeabandligi va obrazlar tizimining aniq ifodalanganligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, she'riy asarlarning ulushi nisbatan kam (13,2%) ekanligi kuzatildi. Bu esa o'quvchilarning lirika janrini qabul qilishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelayotganini yoki dars jarayonida ushbu turdagi asarlarga yetarli e'tibor qaratilmayotganini ko'rsatishi mumkin.

Roman va parcha hikoyalar (32,1%) o'rtacha ko'rsatkichni tashkil etib, bu turdagi asarlarning o'quvchilarda analitik fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni muhim ekanligini tasdiqlaydi. Tarixiy matnlarning esa eng kam ulushini (9,4%) egallashi ularning darslikda kamroq berilganligi yoki o'quvchilar tomonidan murakkabroq qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2-savol: Badiiy asarni tahlil qilishda eng muhim jihat nima?

Natijalar: 42,6% qahramon xarakteri, 40,7% janr, 16,7% matnni yodlash, 0% muallif hayoti.

Tahlil: O'quvchilar asosan qahramon xarakteri va janrga e'tibor qaratadi. Bu modul asosida badiiy asarni obraz, syujet va badiiy vositalarni integratsiyalashgan holda o'rganishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar badiiy asarni tahlil qilishda asosan obrazlar tizimi va janr xususiyatlariga e'tibor qaratmoqdalar. Xususan, respondentlarning 42,6 foizi qahramon xarakterini tushunishni muhim deb bilganligi o'quvchilarda badiiy obrazni anglash va unga baho berish ko'nikmalari shakllanib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa adabiy ta'limning muhim maqsadlaridan biri — o'quvchilarning tahlilviy va empatik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, 40,7 foiz respondentning asar janrini aniqlashni muhim deb baholashi o'quvchilarda nazariy-adabiy tushunchalarga qiziqish mavjudligini ko'rsatadi. Biroq bu ko'rsatkichlar hali ham badiiy asarni kompleks tahlil qilish darajasiga to'liq yetmaganini anglatadi, chunki janrni bilish asarni chuqur anglashning faqat bir komponenti hisoblanadi.

Matnni yod olishni muhim deb hisoblagan respondentlar ulushining nisbatan pastligi (16,7%) ijobiy holat sifatida baholanishi mumkin. Chunki zamonaviy ta'limda reproduktiv yondashuvdan ko'ra, tahlilviy va ijodiy fikrlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

E'tiborga molik jihatlardan biri — "muallif hayotini bilish" varianti umuman tanlanmaganidir. Bu holat o'quvchilarning adabiy asarni muallif shaxsiyati bilan bog'lab o'rganish ko'nikmasi yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Holbuki, adabiy asarni to'laqonli anglashda muallifning hayoti, dunyoqarashi va ijodiy yo'li muhim o'rin tutadi.

3-savol: Dars davomida qaysi usul qiziqroq?

30,2% o'qituvchi tushuntiradi, 64,2% guruh ishlash va munozara, test yoki kitob o'qish: 0%.

Tahlil: Guruh ishlari ustunligi interfaol metodlar – rolli o'yin, aqliy hujum, Venn diagramma – samaradorligini tasdiqlaydi. So'rovnomaga natijalari shuni ko'rsatadiki,

o'quvchilarning aksariyati guruhda ishlash va munozara usulini afzal ko'radi. Bu o'quvchilarning interfaol metodlar bilan ishlashga qiziqishi va faolligini tasdiqlaydi. Guruh ishlari o'quvchilar nafaqat o'z fikrini ifodalaydi, balki sinfdoshlarining qarashlarini tahlil qiladi, ularni solishtiradi va bir-birining fikrini hurmat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, 30,2% respondent o'qituvchining tushuntirishini tinglashni afzal ko'rgan, bu esa reproduktiv o'rganish usuliga hali ham e'tibor borligini ko'rsatadi. O'quvchilarning mustaqil yozish (5,6%) va faqat test yechish yoki kitob o'qish (0%) ulushi esa interfaol va guruh metodlarining samaradorligini yanada yaqqol ko'rsatadi. Dars davomida o'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun faqat o'qituvchi tushuntiradi usulidan ko'ra, interfaol metodlar, guruh ishlari va munozara ustuvor bo'lishi lozim. Masalan, hikoya yoki doston tahlil qilinayotgan paytda o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, qahramon xarakterlarini solishtirish va syujet tafovutlarini muhokama qilish modul asosidagi dars samaradorligini oshiradi. [5]

4-savol: Modul asosida o'tilgan darsda siz ko'proq nima qilasiz?

51,4% tinglash, 35,2% mustaqil ishlash, javob berish/eslab qolish: 0%.

Tahlil: Modul asosida darslar tinglash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, o'quvchilar syujetni tahlil qilish va muammoli vazifalarni yechish imkoniga ega bo'ladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, modul asosida o'tilgan darslarda o'quvchilar asosan tinglash va mustaqil ishlash bilan shug'ullanishni afzal ko'radi. Bu ularning faolligi va mustaqil fikrlashga intilishini bildiradi. Tinglash orqali o'quvchilar darsning asosiy qismidagi syujet, qahramon xarakteri va badiiy vositalarni tushunadi. Mustaqil ishlash esa o'quvchilarga o'z fikrini shakllantirish va tahlil qilish imkonini beradi.

Masalan, 8-sinf darsligidagi "Ravshan dostoni" mavzusini o'rganishda o'quvchilar mustaqil ishlash orqali qahramonlarning xarakteri va ularning syujetdagi rolini yozma shaklda tahlil qilishi mumkin. Shu bilan birga, tinglash orqali darsning o'qituvchi tomonidan olib borilayotgan modul bo'limlarini yaxshiroq tushunish imkoniyatini oshiradi. Modul asosida tashkil etilgan darslarda topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Masalan, matnni INSERT texnologiyasi yordamida belgilash va annotatsiya qilish o'quvchilarga faollikni oshirishga yordam beradi. [6]

5-savol: Muommoli savol sizga qanday ta'sir qiladi?

7,4% qiziqirmaydi, 70,4% o'ylashga majbur bo'ladi, 14,8% chalg'itadi, 7,4% vaqtini oladi.

Tahlil: Muommoli savollar o'quvchilarning tafakkur va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantiradi, modul asosidagi darslar samaradorligini oshiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, 70,4% o'quvchi muommoli savolga duch kelganda o'ylashga majbur bo'ladi, bu esa dars jarayonida tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. 14,8% respondent chalg'itadi deb javob bergani, savolning murakkabligi yoki mavzuni yetarlicha tushuntirilmasligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, 7,4% o'quvchi muommoli savol vaqtini oladi deb hisoblagan, bu esa savolni darsga moslashtirish zaruratini bildiradi.

Muommoli savollar o'quvchilarda analitik va kritikal fikrlashni rivojlantiradi, ularni syujetni o'zgartirish, qahramonlarni boshqa sharoitga qo'yish yoki matnga oid o'z fikrlarini yozish orqali ijodiy yondashuvga o'rgatadi. Darslarda modul va interfaol metodlardan foydalanib, muommoli vazifalar berish o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi, o'z fikrini asoslab bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi va badiiy asarlarni chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'qituvchi muommoli vazifalarni tanlashda savol

murakkabligi va o'quvchining imkoniyatlarini hisobga olishi muhimdir. [7]

**Xulosa.** Olingan natijalar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, modulli ta'lim texnologiyasi 8-sinf adabiyot darslarida samarali qo'llanilganda o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlash va ijodiy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki:

O'quvchilar asosan epik janrdagi asarlar bilan ishlashga qiziqadi. Xususan, hikoya va dostonlar (45,3%) eng ko'p o'zlashtirilmoqda. Bu o'quvchilarda syujetni anglash, qahramon xarakterlarini tahlil qilish va voqealarni mantiqan bog'lash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, she'riy va tarixiy matnlar kamroq tanlanayotgani, darslarda bu turdagi asarlarga alohida e'tibor qaratish zaruratini ko'rsatadi.

Badiiy asarni tahlil qilishdagi ustuvor jihatlar: Respondentlarning 42,6% qahramon xarakterini tushunishni, 40,7% janrni bilishni muhim deb hisoblaydi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar tahliliy fikrlashni shakllantirish yo'nalishida rivojlanmoqda, lekin muallif hayoti va asar g'oyasini chuqur anglash ko'nikmalari yetarli darajada emas. Shu bois, darslarda modul asosida badiiy asarni o'rganish jarayonida muallif hayoti, syujet va obrazlar tizimini birgalikda tahlil qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol metodlarning samaradorligi: So'rovnoma natijalari ko'rsatadiki, o'quvchilar dars davomida guruhda ishlash va munozara (64,2%) usulini afzal biladi. Bu rolli o'yin, Venn diagramma, aqliy hujum kabi metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, o'qituvchining tushuntirish usuli va mustaqil ishlash ham foydali, lekin o'quvchilarning faolligini oshirishda interfaol metodlar ustunlik qiladi.

Muommoli vazifalar o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi: So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning 70,4% muommoli savolga duch kelganda o'ylashga majbur bo'ladi. Bu esa darsning faolligi va o'quvchilarni ijodiy yondashuvga jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, modul asosida o'tilgan darslarda tinglash (51,4%) va mustaqil ishlash (35,2%) bilan shug'ullanish imkoniyati mavjudligi, ularning analitik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Darslik misollariga asoslanish: Masalan, 8-sinf darsligidagi "Ravshan dostoni" hikoyasini o'rganishda klaster va Venn diagramma metodlari yordamida qahramonlar xarakterlarini solishtirish, syujet bo'yicha fikrlarni guruhda muhokama qilish va natijada tahliliy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, she'riy asarlar va tarixiy matnlar uchun interfaol metodlar – aqliy hujum va INSERT texnologiyasi – samarali bo'ladi, chunki ular o'quvchilarga matn mazmunini chuqur anglash va mustaqil izoh berish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, 8-sinf adabiyot darslarida modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash:

O'quvchilarni faollashtiradi, ularni dars jarayoniga to'liq jalb qiladi.

Badiiy asarlarni tahlil qilish, qahramon xarakterlarini anglash va janrni tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi.

Turli janrdagi asarlar bilan ishlash orqali o'quvchilarning estetik va ma'naviy dunyoqarashini boyitadi.

Shu sababli, 8-sinf adabiyot darslarini rejalashtirishda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash va interfaol metodlar bilan boyitish pedagogik jihatdan samarali va zarurdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Ishmuhammedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: 2019.
2. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat. – T.: 2003.
3. Yo'ldoshev J. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: 2004.
4. 8-sinf Adabiyot darsligi. – T.: Tashkent, 2022.
5. "Ravshan dostoni" darslik misoli, 8-sinf adabiyoti, T.: 2022
6. Rahmonov A. INSERT texnologiyasi bo'yicha pedagogik qo'llanma, 2020
7. Yo'ldoshev J. Interfaol metodlar va modul ta'lim texnologiyasi, 2004
8. Hattie J. Visible Learning. – London, 2012.
9. Rahmonov A. Adabiyot darslarida interfaol metodlar. – T.: 2020.